

7 " 05 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 17 martdag'i 37-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rinosi L.Barakayev bir tomonidan va "MEGATEK INJINIRING" MCHJ (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi J.Uktamov ikkinchi tomondan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 30.04.2022 yildagi 71039-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomanini tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Samarqand viloyati Jomboy tumani Xolvoysi MFY 2-ko'chasini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta xujjatlarini belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI

1.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 17 642 756 so'mni tashkil qiladi.

## 3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

## 4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnoma ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning roziligidis shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchiligi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlarini o'z vaqtida o'tkazilagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sisatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytdan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xaratjatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xaratjatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchiligi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalariга muvofiq belgilanadi.

## 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobgari bengan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlarda dalolatnomalar tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ischlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilishi daftarchani to'qaytdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bengan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod

etiladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rlishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarni buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmsalik, shu jumladan noqonuniy to'lovlardan taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

#### 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovnii amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolarni qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlarga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiyamatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiyamatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukuki kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

#### 11. TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

##### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabihev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184017045129118164

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor o'rinnbosari v.b.  L. Barakayev

##### “BAJARUVCHI”

Nomi: “Megatek injiniring” МЧЖ

Manzili: Jizzax vil, Jizzax sh, Madaniya mahallasi, Paxtakor 6

Bank nomi: TIF “Milliy bank” Jizzax filiali

X/R: 22626000804938607001


MFO: 00121

STIR: 207 130 270

OKN: 66000

Direktor:  J. Uktamov

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarining shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist 

Yurist 


Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi. 

“T A S D I Q L A Y M A N”  
“Samarqand mintaqaviy yo’llarga  
buyurtmachi xizmati” DUK  
direktori o’rinbosari komissiya raisi

 L.Barakaev

## BAYONI

Samarqand shahri

«7» 05 2022 y.

Raislik qiluvchi

L.Barakaev

Ishtirok etgan komissiya a’zolari:

Ermamatov Sodiq  
Dehqonboyevich

Komissiya a’zosi, Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod  
Ulug’bekovich

Komissiya a’zosi, Moliya iqtisodiyot bo’limi boshlig’i,

Shavkatov Faridun Alisherovich

Komissiya a’zosi, Loyiha ta’minoti bo’limi boshlig’i,

Abduraimov Sobir  
Mamarajabovich

Komissiya a’zosi, Ishlab chiqarish texnik bo’limi boshlig’i,

Tursunov Shuxrat Istatovich

Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar  
bo’limi boshlig’i.

1. Komissiya a’zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

### KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Samarqand mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati” DUK direktori o’rinbosari v.b L.Barakaev so’zga chiqib Respublika byudjeti mablag’lari hisobidan Samarqand viloyatidagi ichki xo’jalik yo’llarini joriy ta’mirlash ishlari bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2022 yil uchun manzilli ro’yxatiga asosan

1. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 2-ko’chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
2. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 3-ko’chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
3. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 4-ko’chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
4. Bulung’ur tuman Chorbog’ MFY 5-ko’chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
5. Bulung’ur tuman Chorbog’ MFY 7-ko’chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish

joriy ta’mirlash ishlari uchun loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish to’g’risida.

“Samarqand mintaqaviy yo’llarga buyurtmachi xizmati” DUK tomonidan 2022 yil 18 aprelda O’zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga

1. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 2-ko‘chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
2. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 3-ko‘chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
3. Jomboy tuman Xolvoysi MFY 4-ko‘chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
4. Bulung’ur tuman Chorbog’ MFY 5-ko‘chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish
5. Bulung’ur tuman Chorbog’ MFY 7-ko‘chasini joriy ta’mirlash bo’yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish

Ko’chalarini raqamlari bilan e’lon joylashtirildi.

Mazkur lotlar bo’yicha 2022 yil 30 apreldagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o’tkazish bo’yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portalni orqali shakillangan bayonnomalariga asosan e’lon yakuniga ko’ra Komissiya a’zolari tomonidan “**Megatek injiniring**” MChJ korxonasi g’olib deb topilganligini inobatga olib:

#### **QAROR QILADI:**

1. O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to`g`risida”gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo’yicha xech qanday e’tirozlar yoki qo’shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo’limi boshlig’i. Sh.Tursunov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a’zolarining 2022 yil 30 apreldagi elektron bayonnomalariga asosan “**Megatek injiniring**” MChJ bilan qonunchilikda o’rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta’minoti bo’limi boshlig’i F.Shavkatov, tanlov g’olibi “**Megatek injiniring**” MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

#### **Komissiya a’zolari**

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Ermamatov Sodiq Dehqonboyevich		Korxona bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug’bekovich		Moliya iqtisodiyot bo’limi boshlig’i
Shavkatov Faridun Alisherovich		Loyiha ta’minoti bo’limi boshlig’i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo’limi boshlig’i
Tursunov Shuxrat Istatovich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo’limi boshlig’i

*Yig’ilish bayonini yozib bordi:*

J.Karimov

(imzani)